| | |
|---|---|
| TASDIQLANGAN<br>‹‹KORONA›› MChJ QK MMT<br>Direktori U.N. Sabirovning<br>2025 yil «02» oktyabr dagi<br>46-П/2025-sonli Buyrug'i bilan | УТВЕРЖДЕНЫ<br>Приказом № 46-П/2025 от<br>02.10.2025<br>Директор СП ООО МФО<br>‹‹KORONA››<br>Сабиров У.Н. |
| Firibgarlardan himoya qilish bo‘yicha maslahatlar va tavsiyalar | Советы и рекомендации для защиты от мошенников |
| So‘nggi paytlarda internet yoki telefon qo‘ng‘iroqlaridan foydalangan holda firibgarlik holatlari tez-tez uchrab turibdi. ‹‹KORONA›› MChJ QK MMT bir nechta muhim qoidalarga e’tibor berishingizni tavsiya qiladi. Ularga rioya qilish sizning pulingizni xavfsiz saqlashga va firibgarlarning hiyla-nayranglariga tushmaslikka yordam beradi. | В последнее время участились случаи мошенничества с использованием интернета или телефонных звонков. СП ООО МФО ‹‹KORONA›› рекомендует обратить внимание на несколько важных правил. Их соблюдение поможет сохранить ваши денежные средства в безопасности и избежать попадания на уловки мошенников |
| 1. Hech qachon va hech kimga SMS-xabardan kodni aytmang yoki siz amalga oshirgan karta bo‘yicha harakatlarni/tranzaksiyalarni tasdiqlamang. | 1. Никогда и никому не сообщайте код из SMS- сообщения и не подтверждайте действий/транзакций по карте, которые вы не совершали. |
| Firibgarlar o‘zlarini Bank xodimi yoki politsiya (va h.k.) xodimi deb tanishtirishlari mumkin va siz qilmagan operatsiyani tasdiqlashni so‘rashlari mumkin: karta orqali pul o‘tkazish, kredit yoki mikroqarz olish uchun ariza, hisobvaraqdan pul o‘tkazishga urinish va boshqalar.<br><br>Firibgarlar bizning qo‘rquvlarimizdan foydalanadilar va o‘zlarini politsiya xodimlari deb tanishtirishlari mumkin. Qo‘ng‘iroq bo‘lganda telefonni qo‘yishingiz va idoraga o‘zingiz qo‘ng‘iroq qilishingiz yaxshiroqdir. | Мошенники могут позвонить, представившись сотрудником Банка или сотрудником полиции (и т.п.), и попросить подтверждение операции, которые вы не совершали: перевод по карте, заявка на кредит или микрозайм, попытка перевода со счета и др.<br><br>Мошенники пользуются нашими страхами и могут представиться полицейскими. При звонке лучше всего положить трубку и перезвонить в ведомство самостоятельно. |
| 2. Esingizda bo‘lsin! Mikromoliya tashkiloti xodimlari hech qachon sizdan quyidagilarni so‘ramaydi: | 2. Запомните! Сотрудники микрофинансовой организации никогда не будут просить вас: |
| – Siz amalga oshirmagan karta bo‘yicha tranzaksiyani bekor qilishingizni. | – Отменить операцию по карте, которую вы не совершали |

| | |
|---|---|
| – SMSdan tasdiqlash kodini yoki «Korona» ilovasiga kirish uchun kodni ma’lum qilishingizni.<br>– Yuborilgan havola bo‘yicha o‘tishingizni va 3-chi shaxslarning ko‘rsatmasi bo‘yicha begona ilovalarni o‘rnatishingizni. | – Называть код подтверждение из SMS или код для входа в приложение «Korona».<br>– Переходить по высланной ссылке или устанавливать сторонние приложения по указанию 3-х лиц. |
| 3. Shaxsiy ma’lumotlaringizni uchinchi shaxslarga bermang. | 3. Не передавайте персональные данные третьим лицам. |
| Agar **kiruvchi** qo‘ng‘iroq paytida sizdan hujjatlaringiz ma’lumotlarini, masalan, pasport yoki ID-karta raqami, SMSdan kodlarni aytishingizni so‘rashsa - demak siz bilan firibgar gaplashmoqda. Uchinchi shaxslar ta’sirida kredit yoki mikroqarz olish uchun ariza qoldirmang.<br>**Sizning nomingizga rasmiylashtirilayotgan barcha kreditlar yoki mikroqarzlar sizga ularni to‘lash majburiyatini yuklaydi.** | Если при **входящем** звонке вас просят назвать данные ваших документов, например, номер паспорта или ID-карты, коды из SMS-с вами говорит мошенник. Не оставляйте заявку на кредит или микрозайм под влиянием третьих лиц.<br>**Все кредиты или микрозаймы, которые оформляются на ваше имя, возлагают на вас обязанность по их оплате.** |
| 4. Telefoningizga parol o‘rnating. | 4. Установите пароль на свой телефон. |
| Shunda hech kim siz bilmagan holda undan foydalana olmaydi, ma’lumotlaringizni ololmaydi, banklar ilovalariga va “Korona” ilovasiga kira olmaydi. Telefoningizga kirishni hech kimga, hatto do‘stlaringizga yoki yaqin qarindoshlaringizga ham aytish mumkin emas. | Тогда никто не сможет воспользоваться им без вашего ведома, заполучить ваши данные, войти в приложения банков и в приложение «Korona». Доступом к вашему телефону нельзя делиться ни с кем, даже с друзьями или близкими родственниками. |
| 5. Uchinchi shaxslarning foydali takliflaridan ehtiyot bo‘ling. | 5. Относитесь с осторожностью к выгодным предложениям от третьих лиц. |
| Firibgarlar internetda qarzlarni bekor qilishga, foizlar mavjud emasligiga yoki katta miqdordagi kredit yoki mikroqarzni ma’qullashga va’da beruvchi xabarlarni joylashtiradilar. Bu yolg‘on. | Мошенники публикуют в интернете сообщения, обещающие списание долгов, отсутствие процентов или одобрение большой суммы кредита или микрозайма. Это обман. |
| 6. Davlat nomidan bir martalik moliyaviy to‘lovlar haqidagi takliflardan ehtiyot bo‘ling. | 6. Будьте осторожны с предложениями о единовременных |

| | |
|---|---|
| | финансовых выплатах от имени государства |
| Firibgarlar o‘zlarini organlari xodimlari deb tanishtirishlari va davlatdan bir martalik to‘lovni rasmiylashtirishni taklif qilishlari mumkin. To‘lovni rasmiylashtirish uchun yomon niyatli odamlar sizdan o‘z pasport ma’lumotlaringizni va fotosuratingizni taqdim etishingizni so‘raydilar. Ma’lumotlaringizdan foydalanib, firibgarlar sizning nomingizdan kreditlar va mikroqarzlar rasmiylashtiradi.<br><br>Firibgarlik qurboniga aylanmaslik uchun ishonchli axborot manbalari yordamida yoki rasmiy telefon raqami orqali davlat organiga murojaat qilib, ehtimoldagi bir martalik to‘lovlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tekshiring. Shuningdek, hech qachon shaxsiy ma’lumotlar va fotosuratlarni begonalarga bermang - hatto ular ishonchli ko‘rinsa ham. | Мошенники могут представляться сотрудниками государственных органов и предлагать оформить единовременную выплату от государства. Чтобы оформить выплату, злоумышленники просят предоставить вас свои паспортные данные и свою фотографию.<br><br>Использовав ваши данные, мошенники оформляют кредиты и микрозаймы от вашего имени.<br><br>Чтобы не стать жертвой мошенничества, проверяйте информацию о возможных единовременных выплатах с помощью надежных источников информации или обратившись в государственный орган по официальному номеру телефона. А также никогда не передавайте личные данные и фото незнакомцам - даже если они выглядят убедительно. |
| 7. Firibgarlar o‘zlarini “O‘zbekiston Markaziy banki” xodimlari deb tanishtirishlari mumkin. | 7. Мошенники могут представляться сотрудниками «Центробанка Узбекистана». |
| Firibgarlar sizga o‘zlarini Markaziy bank xodimi deb tanishtirib qo‘ng‘iroq qilishlari hamda sizning ma’lumotlaringiz o‘g‘irlanganligi va barcha hisobvaraqlaringizdan pul yechishga urinish bo‘layotganligi haqida xabar berishlari mumkin, sizning mablag‘laringizni himoya qilish uchun bank ilovalarini yuklab olishingizni va noqonuniy xatti-harakatlarni blokirovka qilish uchun mikrokreditlar rasmiylashtirishingizni, shuningdek SMSdan kodlar haqida xabar birishingizni yoki parol kiritishingizni so‘raydilar.<br><br>Natijada, siz o‘zingiz kreditlarni rasmiylashtirasiz va hisobvaraqlaringizga | Мошенники могут звонить вам представляясь сотрудником Центробанка и сообщить, что ваши данные украдены и идет попытка снятия денег со всех ваших счетов, для защиты ваших денежных средств просят скачать банковские приложения и оформить микрокредиты, чтобы заблокировать неправомерные действия, а также сообщить коды из смс или ввести пароль.<br><br>В итоге вы сами оформляете кредиты и передаете доступ к своим счетам, тем самым передавая денежные средства мошенникам.<br><br>Для того чтобы не попасть на данный вид мошенничества нужно |

| | |
|---|---|
| kirishni berib, shu orqali firibgarlarga pul mablag‘laringizni topshirib qo‘yasiz.<br><br>Ushbu turdagi firibgarlikka duch kelmaslik uchun siz Markaziy bank xodimlari hech qachon fuqarolarga qo‘ng‘iroq qilmasliklarini, kartalardagi pul mablag‘lari oqimini kuzatmasliklarini va kreditlarni rasmiylashtirishni talab qilmasliklarini esdan chiqarmasligingiz kerak. Shuningdek, shubhali fayllarni telefoningizga hech qanday bahona bilan - ayniqsa xabarlardan o‘rnatmang. | запомнить, что сотрудники Центробанка никогда не звонят гражданам, не следят за движением денежных средств по картам и не требуют оформления кредитов. А также не под каким предлогом **не устанавливать подозрительные файлы** на телефон — особенно из сообщений. |